XALQ DEPUTATLARI QO’SHRABOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-023-7-97-K/24 Qo’shrabot tumani

Qo‘shrabot tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining “Samarqand viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2025-yil uchun Qo‘shrabot tumani mahalliy budjetini qabul qilish bo‘yicha Xalq deputatlari Qo‘shrabot tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining “Samarqand viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Qo‘shrabot tumani mahalliybudjetiga Samarqand viloyati budjetidan ajratilgan:

tartibga soluvchi budjetlararo transfert **25 373 174,0 ming so‘m**miqdorida tasdiqlanganligi. Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozining ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab qo‘yilganligi hamda tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i **917 000,0 ming so‘m** miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman budjetidan 2025-yilgituman budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjeti zahira jamg‘armasi hajmi **1 482 616,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimligi va tegishli tashkilotlarga:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini Xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Bubakov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Xoliqulov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

SHAKARBOYEV
DILSHOD
DAVRONOVICH

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-97-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qo‘shrabot tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**91 529 222**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	3 904 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	56 406 000
3	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	6 616 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	549 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	6 300 422
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 094 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 894 000
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	555 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 187 800
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	23 000

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-97-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Qo‘shrabot tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**116 902 396**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	38 185 307
	shundan:	
	"Mening maktabim"	5 296 456
2	Madaniyat bo‘limi	3 751 204
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 905 258
4	Sport bo‘limi	3 982 685
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 095 184
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 648 983
7	Irrigatsiya bo‘limi	200 000
8	*Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari*	2 678 060
9	Hokimiyat	39 508 224
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	55 125
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	27 204 605
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 269 000
	Zahira jamg‘armasi	1 482 616
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	771 657

	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	179 848
	Axborot-kutubxona markazlari	591 809
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	17 175 834